

BOLALARDA KO'P UCHRAYDIGAN VIRUSLI GEPATIT VA UNING TURLARI.

Abdullayeva Gulxumorxon Qodirovna

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
Bolalar kasalliklarida xamshiralik parvarishi fani o'qituvchisi.*



Virusli gepatit - o'tkir yuqumli [kasallik](#); [jigar hujayralarining](#) zararlanishi, umumiy [intoksikatsiya](#) belgilari, teri va shilliq qavatlarning sarg'ayishi, peshobning to'q sariq yoki "pivo"ga o'xshash, najasning oqimtir tusga (gilvata rangiga) kirishi, jigar, ba'zan taloqning ham kattalashishi bilan ifodalanadi.

Virusli gepatit deganda bir-biriga o'xshash olti xil gepatit tushuniladi, bular A, V, S, D, Ye, G [viruslari](#) qo'zg'atadigan kasalliklardir. Ular yuqishiga qarab og'iz orqali (A, Ye) va parenteral yo'l bilan yuqadigan (B, S, D, G) xillarga ajratiladi. A va Ye virusli gepatitlarda viruslar bemorning axlati orqali tashqariga chiqadi. Shuning uchun axlat, suv, oziq-ovqat mahsulotlari, bemor foydalangan buyum va narsalardan ifloslanish juda xavfli hisoblanadi. Parenteral yo'l bilan yuqadigan Virusli gepatitlar shprits, igna va b. tibbiy asboblarni yetarli zararsizlantirmaslik oqibatida, shuningdek qon va qon preparatlari quyish hamda turli tibbiy muolajalar (ginekologik, stomatologik va b.) vaqtida yuqishi mumkin Virusli gepatitlar davriy kechishi bilan harakterlanadi, uning yashirin, boshlang'ich, avj olgan, orqaga qaytish va sog'ayish davrlari ajratiladi. Kasallikning yashirin davri uning turiga qarab har xil: A va Ye virusli gepatitlarda 7 kundan 60 kungacha, parenteral yo'l bilan yuqadigan xillarida 2

haftadan 6 oygacha, ba'zan 1 yilgacha davom etishi mumkin. Virusli hepatitlar yengil, o'rta va og'ir, shuningdek asoratsiz va asoratli, o'tkir, surunkali hamda vaqt-vaqti bilan qaytalanib turadigan shakllarda kechadi; ba'zan aralash xillari ham kuzatiladi. Homilador ayollar va bolalarda kasallik og'irroq kechadi. Virusli hepatitlarning shakli-shamoyili turlicha: grippga o'xshash, dispeptik, astenovegetativ, artralgiik alomatlar, aralash sindromlar bilan hamda latent (klinik belgisiz). Kasallik grippga o'xshab boshlanganda bemor to'satdan qaltiraydi, eti uvishadi. boshi og'riydi, harorati ko'tariladi, a'zoyi badani qaqshaydi, yo'taladi va. Dispeptik alomatlar bilan boshlanganida bemor ko'ngli aynib qusadi, me'da sohasida bir oz og'riq bo'ladi, ba'zan ichi ketadi; uning madori qurib, ishtahasi pasayadi, o'ng qovurg'asi ostida og'riq paydo bo'ladi. Astenovegeativ alomatlar bilan boshlanganda bemorning boshi aylanadi, og'riydi, ko'p terlaydi, o'ta injiq, yig'loqi bo'lib qoladi. Virusli hepatitlarning boshlang'ich davri qanday sindrom bilan kechishidan qat'i nazar, shu kasallikka xos 3 belgi kuzatiladi: 1) siydikning pivo rangida bo'lishi; 2) axlat rangining oqarishi; 3) ko'pchilik (deyarli 90%) hollarda jigarning kattalashishi.

Kasallikning "sariqlik davri" ham o'ziga xos tarzda kechadi. Ko'z oqi sarg'ayishi bilan Virusli hepatitning avj olgan davri boshlanadi; A shaklida bemor sarg'ayishi bilan uning ahvoli ancha yengillashib tuzalinqiraydi. Parenteral yo'l bilan yuqadigan Virusli hepatitlarda, og'iz orqali yuqadiganlariga nisbatan sariqlik davri uzoqroq cho'ziladi, bemor tezda tuzalavermaydi, darmoni quriydi, ko'ngli ayniydi, ba'zi hollarda badani qichiydi (xolestatik xili). Virusli hepatitlarning xiliga qarab uning klinik alomatlari turlicha namoyon bo'lishi mumkin: sariqsiz o'tadigan shaklida pigment almashinuvi buzilmaganligi sababli bemor sarg'aymaydi, siydigi va axlatining rangi o'zgarmaydi, qonda bilirubin miqdori me'yorida bo'ladi. Bilinar-bilinmas belgilar bilan o'tadigan shaklida bemorning ko'zi qisqa muddat sal sarg'ayadi, bilirubin miqsori ham tezda o'z asliga keladi. Subklinik shaklida klinik belgilar deyarli kuzatilmaydi, uni faqat lab. tekshiruvlaridan bilish mumkin. Virusli hepatitning virus tashib yuruvchilik shakli ancha murakkab, u yashirin holda kechib, bora-bora surunkali tus oladi. Kasallikning surunkali xili ancha ogir asoratlarga (o'tkir jigar ensefalopatiyasi, gemorragik, shish-assitik sindrom va b.) sabab bo'lishi mumkin.

Virusli hepatit tashhisi (diagnozi) asosan bemordan olingan ma'lumotlar, kasallikka xos alomatlar, qon tahlili va boshqalar asosida qo'yiladi. Virusli hepatitning boshlang'ich davri dispeptik, kataral va soxta revmatoid sindromlarda kuzatiladigan belgilarga o'xshab ketganligi bois, uni ana shu kasalliklardan farqlay bilish lozim.

Virusli hepatitlarning oldini olishda shaxsiy gigiyena qoidalariga bekamu ko'st amal qilish, kasallikni o'z vaqtida aniqlab, bemorni kasalxonaga yotqizish va u bilan yaqin bo'lganlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish hamda u tutgan idish-tovoq va buyumlarni dezinfeksiya qilish muhim. Kasalxonadan chiqqan bemorlar ma'lum muddat dispanser nazoratida bo'lishlari lozim. Kasallikning oldini olish maqsadida A va V hepatitlarga

qarshi vaksinatsiya qilinadi (emlanadi). U yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga, 2-marta esa 1 oyligida teri ostiga yuboriladi. Revaksinatsiya bola 6 oyligida o‘tkaziladi. Emlash natijasida 95% bolalarda kasallikka qarshi immunitet paydo bo‘ladi; epidemiologik jarayonlarga qarab kattalarga ham vaksina yuboriladi, u birinchi bor qilingandan keyin oradan 1 oy va 6 oy o‘tgach qayta emlanadi. Emlash natijasida immunitet paydo bo‘lib, u 15—20-yilgacha saqlanadi va kasallik tarqalishining oldini oladi, virus tashuvchilik himoyalani. Profilaktika maqsadida bolalarga gammaglobulin (normal immunoglobulin) dan ukol qilinadi. Davolash asosan bemorning umumiy ahvoli va kasallikning klinik belgilariga qarab olib boriladi; yengilroq xilida deyarli dori-darmonlar berilmaydi, kun tartibi va parhezga (qarang Parhez bilan davolash) rioya qilish tavsiya etiladi. Kasallikning boshqa shakllarida ham parhez va kun tartibiga amal qilishdan tashqari, [glyukoza](#), [vitaminlar](#), tuzli eritmalar, qon hamda plazma va qon o‘rnini bosuvchi suyuqliklar, zarur hollarda gormonlar, antibiotiklar va h. k. buyuriladi. Bemorga vitaminlar, uglevodlar, oqsilga boy ovqatlar, shuningdek turli meva sharbatlari beriladi

Kasallikni yuzaga kelishida tozalikka rioya qilmaslik, ya’ni ovqatlanishdan oldin qo‘llarni sovunlab yuvmaslik, meva va sabzavotlarni yuvmasdan iste’mol qilish hamda qaynatilmagan suvni ichish sabab bo‘ladi. Shuning uchun, kasallik ko‘proq bolalarda uchraydi.

Pashshalar kasallikni yuqishida yetakchi rol o‘ynaydi. Birgina pashsha ichagi, qanoti va tanasida millionlab kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroblarni, shuningdek, gepatit viruslarini ham (turli xil axlat va najaslarga qo‘nishi oqibatida) tashiydi. Organizmga virus tushishi bilan kasallik birdaniga boshlanmaydi. Dastlab virus organizmda ko‘payadi. Bu davr klinik belgilersiz kechadi va kasallikning yashirin davri deyiladi. Bu davr 3-6 haftagacha davom etishi mumkin.

Kasallik belgilari:

- umumiy holsizlik;
- ishtahasizlik;
- ko‘ngil aynashi;
- ovqatlangandan so‘ng qayt qilish;
- shilliq qavat va terining sarg‘ayishi.

Profilaktik tadbirlar:

- virusli gepatit Aga qarshi emlatish;
- ho‘l meva va poliz mahsulotlarini yaxshilab yuvib iste’mol qilish;
- suvni qaynatilgan holda ichish;
- ruxsat etilgan suv havzalarida cho‘milish va bu jarayonda suv yutmaslikka e’tibor berish;
- ozodalik va orastalikka rioya qilish;

- pashshalarning ko'payishiga yo'l qo'ymaslik;
- ovqatdan oldin va hojatdan keyin qo'llarni sovunlab yuvish;
- uyda va jamoat joylarida gigiyena qoidalariga rioya qilish.

Bolalarda gepatit - belgilar

Kichkintoy dunyoga kelgandan so'ng va hali ham shifoxonada bo'lganida, ikkita vaktsinani qo'yish kerak: biri sil kasalligiga qarshi (BCG deb ataladi), ikkinchisi - gepatit B ga qarshi. Bunday e'tibor tasodifiy emas. Katta yoshlarda bu kasallik xarakterli xususiyatlarga ega bo'lib, bolalarda asimptomatik rivojlanishi mumkin. Shu sababli uch oylik va olti oylik yoshdagi bolalar qayta tiklanadi. Gepatit A ga qarshi emlash uch yoshga to'lgan bolalarga beriladi va uch yarim yil ichida qayta kiritiladi. Ammo har doim ham bolaning vujudiga tushadigan virus bu kasallikdan qochishga yordam beradi. Shuning uchun har bir ota-ona o'z avlodlarida uchta gepatit virusining alomatlarini qanday aniqlashni bilishi kerak:

1. **Gepatit A.** (Botkin kasalligi). Og'zidan oziq-ovqat bilan, shuningdek, bu virus bilan og'rikan bemorga yoki harom qo'llar bilan o'tishi mumkin. Gepatitning eng keng tarqalgan shakli. Kasallikning boshlanishi yuqori darajada isitma, grippga o'xshash alomatlar (zaiflik, titroq, bosh og'rig'i, tanadagi barcha og'riqlar) bilan tavsiflanadi. Keyinchalik jigar va oshqozon-ichak traktida zararlanish boshlanadi. Bolalarda bu alomatlar anchagina seziladi. Bolada o'ng hipokondriyumda og'riq va og'irlikdan shikoyat qilish va ovqat eyishdan bosh tortish mumkin. Diareya va qusish ham sodir bo'lishi mumkin. Kecha teri tekshiruvi bilan bolani bezovta qilish mumkin. Bir necha kundan so'ng, pivoning rangi siydikni rangga aylantirish mumkin, va najas o'zgaruvchan bo'ladi.

2. **Gepatit B** (sarum gepatit). Oldingi turlardan ko'ra xavfli. Ona suti, qon, tupurik va ko'z yoshlari orqali o'tishi mumkin. Gepatit B belgilarida bolalarda belgilanish juda qiyin. Ammo, agar bu kasallikning bunday shakli bo'lsa, quyidagi shikoyatlar va ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish lozim:

- tishli va burun tomirlaridan qon ketish;
- jigar, oshqozon osti bezi va safro yo'llarining ko'payishi;
- harorat oshishi;
- qorinning yuqori o'ng tomonidagi og'riq
- teri ustida döküntü.

3. **Gepatit C.** Kasallikning eng xavfli shakli. Virus inson organizmida ko'p yillar davomida yashash imkonini beradigan xususiyatlarga ega. Infeksiyaning asosiy alomatlari: zaiflik, charchash, ishtahaning etishmovchiligi, sarg'ish rangdagi teri, siydikni qorayishi va najasni aniqlash. Juda tez-tez, kasallik bilan, taxminan 80% hollarda surunkali gepatit yuzaga kelishi mumkinligiga olib keladi. Bolalarda asemptomatik yoki yumshoq bo'lishi mumkin.



Odatda, qorin bo'shlig'ini ultratovush tekshirilgandan so'ng siz aniq tashxis qo'yishingiz va bolalarda S gepatitini davolashni boshlashingiz mumkin.

Kasallikning har qanday shakli yotoqxonada va o'simlik yog'laridan, oqsillardan, hazm bo'ladigan karbongidratlardan, yangi sabzavotlardan, meva va sharbatlardan tashkil topgan parhez bilan davolanadi. Yaxshilik va sog'ayishning yaxshilanishi bilan jigar hujayralarining metabolik jarayonlarini yaxshilovchi xoleretik preparatlar va dorilar davolanishga qo'shiladi. Gepatit B holatida antiviral preparatlar qo'shilishi mumkin. Bolalarda tug'ma gepatit xuddi shu tarzda davolanadi, ammo to'g'ri ovqatlanishni ta'minlash uchun hayot davomida zarur bo'ladi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Q.Inomov, M.G'aniyeva "Pediatriyada hamshiralik ishi" Toshket ILM-ZIYO 2017y.
2. M.F.Ziyaeva. Z.O.Rizaeva. "Bolalarda xamshiralik parvarishi". Toshkent, "Fan va texnologiya" 2012 yil.
3. M.A. Fozilbekova, X.S. Zaynitdinova "Terapiya va ginekologiyada hamshiralik ishi" "O'QITUVCHI" NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT – 2004.
4. L.N. Yasharova, F.T. Asqarova "Ayollarda parvarish xususiyati" Toshkent – "ILM ZIYO" – 2014 yil.
5. Ya.N. Allayorov "Terapiya va ginekologiya" Toshkent, 2017.
6. Ya.N. Allayorov "Terapiya " Toshkent, 2008.

Internet saytlari ro'yxati:

1. ziyonet.uz
2. med.uz
3. minzdrav.uz
4. tma.uz
5. tashpmi.uz